

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
115 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	



O'ZBEKISTON UY XO'JALIKLARINING FAROVONLIK KOEFFITSIYENTI: BLACKORBY VA DONALDSON YONDASHUVI ASOSIDA TAHLILI

Boltayeva Dilafza Jumaqulovna

TDIU 2-kurs magistranti

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozashtirish” kafedrası assistenti

Annotatsiya: maqolada uy xo'jaliklarining bozor iqtisodiyotidagi o'rni va ularning farovonlik darajasini o'lchashning nazariy va amaliy asoslari Blackorby va Donaldson tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik koeffitsienti konsepsiyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasida iste'mol xarajatlari, inflyatsiya darajasi va mehnat bozori o'zgarishlari asosiy indikator sifatida tanlanib, 2010–2024 yillar davomida O'zbekiston uy xo'jaliklari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida farovonlik koeffitsientining dinamikasi hisoblab chiqilgan. Tahlil natijalari iqtisodiy o'sish sur'atlarining bevosita uy xo'jaliklarining turmush darajasiga ta'sir qiluvchi omillar bilan qanday bog'liqligini ko'rsatadi. Xulosa sifatida esa, ijtimoiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uy xo'jaliklari, farovonlik koeffitsienti, inflyatsiya, turmush darajasi, iste'mol xarajatlari, kambag'allik, ijtimoiy siyosat.

Abstract: This article examines the role of households in a market economy and explores both theoretical and practical aspects of measuring their well-being using the welfare coefficient concept developed by Blackorby and Donaldson. The study employs a methodology based on indicators such as consumer expenditure, inflation, and labor market fluctuations. Utilizing official statistical data from Uzbekistan for the years 2010 to 2024, the dynamics of the welfare coefficient were calculated. The findings highlight the correlation between macroeconomic factors and household living standards. The paper concludes with policy recommendations aimed at enhancing social welfare systems.

Keywords: households, welfare coefficient, inflation, living standards, consumer expenditure, poverty, social policy.

Аннотация: В статье рассматривается роль домохозяйств в рыночной экономике и теоретические и практические аспекты измерения их благосостояния на основе концепции коэффициента благосостояния, предложенной Блэкорби и Дональдсоном. В качестве методологической основы используются данные о потребительских расходах, инфляции и изменениях на рынке труда. На основе официальной статистики Узбекистана за 2010–2024 годы рассчитана динамика коэффициента благосостояния. Результаты исследования демонстрируют взаимосвязь между макроэкономическими тенденциями и уровнем жизни домохозяйств. В заключение даны предложения по совершенствованию социальной политики.

Ключевые слова: домохозяйства, коэффициент благосостояния, инфляция, уровень жизни, потребительские расходы, бедность, социальная политика.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida uy xo'jaliklarining o'rni va funksiyalariga oid ilmiy qarashlar yangi mazmun kasb etmoqda. Xususan, zamonaviy iqtisodiy nazariya vakillari tadqiqotlarida uy xo'jaliklari va korxonalar bir-biridan faoliyat sohasi, maqsad yo'nalishi hamda resurslardan foydalanish shakli bo'yicha farqlanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar sifatida tahlil etiladi. Bu nuqtai nazardan uy xo'jaliklari qaror qabul qilish va uni amalga oshirishning asosiy birligi bo'lib, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini taklif etuvchi, shuningdek, iste'mol bozori ishtirokchisi sifatida ko'rib chiqiladi.

Uy xo'jaliklarining iqtisodiy holatiga global va milliy miqyosdagi tendensiyalar, jumladan, mehnat bozori tarkibidagi o'zgarishlar, inflyatsiya darajasi, kredit resurslariga kirish imkoniyati va innovatsion texnologiyalar joriy etilishi bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida uy xo'jaliklarining daromadlari va xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarishi, xususan, energiya bozorlaridagi nomutanosiblik va ta'minot zanjirlarining uzilishi oqibatida yuzaga kelgan global inflyatsiya zaruriy iste'mol tovarlari narxining oshishiga olib keldi. Bu holat aholining xarid qobiliyatining pasayishi va uy xo'jaliklari uchun qarz yuki xavfining ortishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holatlar O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Oziq-ovqat va yoqilg'i mahsulotlari narxining keskin oshishi natijasida o'zbek oilalari asosiy iste'mol xarajatlarining sezilarli darajada ko'payishi, xarid qobiliyatining pasayishi va jamg'arish imkoniyatlarining cheklanishi bilan duch kelmoqda. Ayniqsa, bu holat qishloq xo'jaligi barqarorligiga bog'liq bo'lgan va mahsulot narxlarining o'zgarishiga nisbatan sezgir bo'lgan qishloq hududlarida kuchliroq namoyon bo'lmoqda.

Ushbu jarayonlarga javoban O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi "Respublika aholisini ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlari bilan ishonchli ta'minlashga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3082-sonli¹ qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-dekabrda "Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini barqarorligini ta'minlash hamda mahsulotlar xavfsizligi va sifatini tizimli nazorat qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 716-sonli² qaroriga asosida ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini tartibga solish va kam ta'minlangan uy xo'jaliklarini subsidiyalash choralari ko'rildi. Bu chora-tadbirlar inflyatsiya ta'sirini yumshatishga xizmat qilsa-da, narxlar o'zgarishining uy xo'jaliklari xatti-harakatlariga, iste'molchilarning faolligiga va farovonlik darajasiga qanday ta'sir qilayotganini tizimli tahlil qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi va masofaviy ishlash imkoniyatlarining kengayishi ba'zi uy xo'jaliklari uchun iqtisodiy va mehnat faoliyati yo'nalishida yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Biroq bu holat, ayniqsa, avtomatlashtirish jarayonlariga ko'proq moyil bo'lgan tarmoqlarda ishlovchilar uchun ish o'rinlari va daromadlarni yo'qotish xavfini kuchaytirishi mumkin.

Shunday qilib, uy xo'jaliklarining farovonlik darajasini aniqlash, uni baholashning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish va ijtimoiy-iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'lash bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotning alohida sektori sifatida uy xo'jaliklari faoliyatiga oid muammolar ko'plab xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, G. Bekker, R. Barr, I. Baskakova, V. Jerebin, A. Oleynik, T. Lavrova, Ye. V. Kulikova, V. D. Kamayev, Ye. V. Koldeyeva va boshqalar tomonidan tahlil qilingan. Uy xo'jaligi va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar rivojlanishi masalalari V. Miloserdov, A. Oleynik, A. V. Chayanov, G. I. Shmelev, V. Kopach, V. Kazarezov, A. Rasskazov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan.

Oila daromadlari, xarajatlari, byudjeti va ularning shakllanishida uy xo'jaligi a'zolarining o'rni va roli masalalari V. Jerebin³, Ye. Petuxova, Ye. V. Kulikova va boshqalarning ilmiy ishlarida

1 <https://lex.uz/docs/-3249723>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6321693>

3 Jerebin V., Romanov A. Ekonomika domashnix xozyaystv. – M.: Finansy/ YUNITI, 1998, - S. 25

alohida o'rganilgan. Shuningdek, uy xo'jaliklarini institutsional rivojlantirish muammolari T. Veblen, Dj. Gelbreyt, D. Nort kabi taniqli xorijiy iqtisodchilar tomonidan tahlil qilingan.

Uy xo'jaliklarining iqtisodiyot subyekti sifatidagi faoliyati va ularni rivojlantirishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlar O'zbekiston olimlari tomonidan ham chuqur o'rganib kelinmoqda. Xususan, makrodarajada uy xo'jaliklari milliy hisoblar tizimi doirasida iqtisodiyotning alohida sektorini tashkil etuvchi statistik birlik sifatida M. Sharifxo'jayev, A. Abdullayev, B. Berkinov, A. Vahobov, B. Mahmudov, Yo. Fayzullayev, B. K. G'oyibnazarov va boshqa olimlar tomonidan tahlil qilingan.

Mikrodarajada esa uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish (dehqon xo'jaliklari) va moliyaviy funksiyalari, oila tadbirkorligini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, yangi agrar munosabatlar masalalari A. Abdusamatov, X. Aralov, Ya. Aliyev, U. Muxambetova, A. Muxtorov, R. Saidov, B. Sultonov, R. Sultonov, N. Xushmatov, R. Xusanov, M. Qosimov, Q. Choriyev, U. Umurzoqov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Shu bilan birga, uy xo'jaliklarining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lishiga qaramay, ularning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, oila ehtiyojlari va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar hali ham yetarli darajada keng qamrovli emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada uy xo'jaliklarining iqtisodiyotdagi o'rni hamda ularning farovonlik darajasini o'lchashga oid nazariy va amaliy jihatlar, xususan, Blackorby va Donaldson tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik koeffitsienti konsepsiyasi asosida O'zbekiston uy xo'jaliklari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy izlanishning metodologik asosi sifatida tanlanma adabiyotlar tahlili, guruhlashtirish, tahlil (analiz) va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy taqqoslash, statistik ma'lumotlarni yig'ish hamda iqtisodiy-matematik usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Uy xo'jaligi" atamasi kundalik hayotda, odatda hovli-joyda yoki ko'p qavatli uyda yashovchi insonlarning hayot kechirishini ta'minlash faoliyatini anglatadi. Shu bois, zamonaviy uy xo'jaliklari sotsiologiya, demografiya, statistika, psixologiya, iqtisodiyot va boshqa ijtimoiy fanlar doirasida keng o'rganiladi. Har bir fan uy xo'jaligi faoliyatining o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratadi. Uy xo'jaligining hayoti va rivojlanishiga oid muammolarning murakkabligi uning ko'p yo'nalishli xususiyatiga bog'liq bo'lib, bu holat turli fanlar kesishmasida tahlil qilinishini taqozo etadi.

Ushbu maqolada uy xo'jaliklarining iste'molga asoslangan farovonlik darajasini baholovchi nazariy asoslar ko'rib chiqiladi. Bunda asosiy yondashuvlardan biri Blackorby va Donaldson (1987) tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik koeffitsienti kontsepsiyasidir. Ushbu yondashuv nominal iste'mol birliklari asosida qurilgan bo'lib, o'zining kuchli va zaif jihatlariga ega.

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri sifatida bu yondashuv davlat siyosatini, ayniqsa taqsimotga ta'sir qiluvchi siyosiy chora-tadbirlarni asoslashda xizmat qiladi. Masalan, ko'plab siyosiy dasturlar qabul qilinayotganda quyidagi tamoyildan kelib chiqiladi: "pul o'tkazmalari oluvchining daromadi qancha past bo'lsa, ular shuncha foydaliroq hisoblanadi". Bu esa kambag'allikka qarshi kurashish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan yondashuvdir. Mazkur tamoyil ba'zida taqsimlovchi og'irlik koeffitsientlari orqali murakkab shaklda ifodalanadi va daromad darajasi yuqori bo'lgan guruhlariga nisbatan bu koeffitsiyentlar pasayib boradi.

Blackorby va Donaldson (1988) pulning nafililik o'lchovi kontsepsiyasini tahlil qilarkan, bu yondashuv ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi. Pulning nafililik o'lchovi – uy xo'jaligi nafililik funksiyasini normallashtirish vositasi bo'lib, iste'molchi tanlovini va afzalliklarini aks ettiradi. U, odatda, moslashuvchan emas, ammo amaliy farovonlik tahlilida bu xususiyat ijobiy sifat deb baholanadi. Boshqacha aytganda, ushbu o'lchov uy xo'jaligi zaruriy nafililikka erishish uchun qancha daromad kerakligini aniqlaydi. Shuning uchun bu funksiyaga "minimal daromad funksiyasi" yoki "to'g'ridan-to'g'ri kompensatsiya funksiyasi" nomi ham beriladi. U nafililikni oshirish uchun zarur bo'lgan daromad miqdorini aniqlab beradi va "ko'proq daromad – yuqori nafililik" prinsipiga asoslanadi.




Muammoning mohiyatini tushunish uchun, dastlab xonadonning umumiy xarajatlari (yoki daromadi) turmush darajasining qoniqarli ko'rsatkichi bo'lishi mumkin, degan taxminni olamiz. Bunda narxlar barcha uchun bir xil va barcha xonadonlar hajmi hamda tarkibi jihatidan o'xshash deb qabul qilinadi. Bunday sharoitda daromadlar taqsimotida yuqori o'rinda turgan uy xo'jaliklari boylikning o'sishini to'liq aks ettiruvchi pul o'tkazmalariga ega bo'ladi. Shu sababli, tengsizlik muammosi bilan shug'ullanuvchi siyosatchilar bu kabi o'zgarishlarning ijtimoiy marjinal qiymatga ega ekanligi tamoyiliga asoslanadilar.

Ammo pulning naflilik o'lchovi bu yerda $m(y)$ funksiyasi orqali ifodalanadi. Bu funksiya o'sib boruvchi bo'lib, yuqori daromad – yuqori befarqlik egri chizig'i – yuqori turmush darajasiga mos keladi. Blackorby va Donaldson ushbu modelda ko'rsatadiki, pulning naflilik o'lchovi doimiy yoki o'zgaruvchan tezlikda o'sishi mumkin va bu bevosita narx vektorining tanlanishiga bog'liq. Natijada, qayta taqsimlash siyosati bilan farovonlik o'lchovi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik har doim ham mavjud emas.

Masalan, agar siyosat transfer dasturlari shaklida yuqori daromadli uy xo'jaliklaridan kam ta'minlangan uy xo'jaliklarga mablag' o'tkazishni nazarda tutsa, bu pul daromadlarini tenglashtiradi. Biroq, pul va uning naflilik o'lchovi o'rtasidagi bog'liqlik noaniq bo'lgani uchun, ushbu o'zgarishlar naflilik o'lchovini kamaytirganiga kafolat yo'q. Shu bois, siyosiy ta'sirni aniq kuzatish imkoniyati cheklanadi. Buning ustiga, narxlar o'zgargan taqdirda turli narxlar tanlanishi natijasida turli natijalar kuzatiladi. Amaliyotda esa, biz ko'pincha mavjud narxlar doirasida ishlashga majburiy.

Ushbu murakkabliklarni bartaraf etish maqsadida Blackorby va Donaldson (1997)⁴ pulning naflilik o'lchovi o'rniga "farovonlik koeffitsienti"dan foydalanishni taklif etgan. Jahon banki tuzilmalarida farovonlik koeffitsiyenti amaliyotini qo'llash imkoniyatlari esa Ravallion (1998) tomonidan tahlil qilingan⁵.

Ushbu konsepsiyadagi asosiy g'oya — turmush darajasini asosiy befarqlik egri chizig'iga nisbatan ifodalashdir. Kambag'allikni tahlil qilishda esa mos tanlov – kambag'allikning befarqlik egri chizig'i bo'lib, u kambag'allarni boy qatlamdan ajratib turadigan turmush darajasini belgilaydi. Farovonlik koeffitsiyenti – uy xo'jaligining mavjud xarajatlarning ushbu befarqlik egri chizig'iga erishish uchun zarur bo'lgan xarajatlarga nisbati bo'lib, bu ko'rsatkichlar uy xo'jaligi duch keladigan narxlar bilan aniqlanadi. (1-rasm)



1-rasm. Befarqlik egri chiziqlarini belgilashning ikkita varianti.

4 Blackorby, C., & Donaldson, D. (1997). Welfare ratios and distributionally sensitive cost-benefit analysis. The Review of Economic Studies, 64(4)

5 Ravallion, M. (1998). Poverty lines in theory and practice. Washington, DC: World Bank.

Agar 1-rasmdagi II kambag'allikning befarqlik egri chizig'i bo'lsa va JJ biz o'lchashga harakat qilayotgan befarqlik egri chizig'i bo'lsa, unda ikkala narx chizig'i joriy (va asosiy emas) narxlarni aks ettirishi sharti bilan farovonlik koeffitsiyenti OD/OC yoki (teng ravishda) OD^1/OC^1 . Xarajat funksiyasi orqali koeffitsiyent quyidagi ifoda bilan beriladi:

$$wr^h = \frac{c(u^h, p^h)}{c(u^z, p^h)} \quad (1)$$

bu yerda u^h - uy xo'jaligi uchun pulning nafililik o'lchovi, p^h - uy xo'jaligining narxlar vektori, u^z - kambag'allik chegarasidagi nafililik, ya'ni kambag'allikning befarqlik egri chizig'iga mos keladigan nafililik, C - xarajatlar funksiyasidir.

Pul ko'rsatkichi bo'lgan pulning nafililik o'lchovi (ma'lum bir foyda egri chizig'iga erishish uchun zarur bo'lgan minimal pul miqdori) dan farqli o'laroq, farovonlik koeffitsienti mavhum raqam - kambag'allik darajasining ko'paytmasi sifatida turmush darajasi. Amalda, farovonlik koeffitsientini pul ko'rsatkichiga aylantirish foydalidir va buning uchun koeffitsiyentni asosiy narxlarda kambag'allik chegarasiga mos keladigan foyda olish xarajatlari sifatida belgilangan kambag'allik chegarasiga ko'paytirish kerak, $c(u^z, p^0)$. Shunday qilib olingan koeffitsient -farovonlik ko'rsatkichi bilan belgilanadi.

$$u_r^h = \frac{c(u^h, p^h)}{c(u^z, p^h)} * c(u^z, p^0) \quad (2)$$

Pulning nafililik o'lchovi ko'rsatkichi singari, (2.8) - umumiy xarajatlar x^h dir, u narxlar indeksiga bo'linadi, bu holda p^h haqiqiy yashash qiymati indeksidir, u kambag'allik chegarasining befarqlik egri chizig'ida hisoblangan dan farq qiladi. Ushbu yashash qiymati narxlar indeksi odatda Laspeyres indeksi yordamida taxminiy usul bilan topiladi:

$$P_{Lz}^h = \frac{p^h * q^z}{p^0 * q^z} = \sum_{i=1}^n \frac{p_i^0 * q_i^z}{p^0 * q^z} \left(\frac{p_i^h}{p_i^0} \right) = \sum_{i=1}^n w_i^{z0} \left(\frac{p_i^h}{p_i^0} \right) \quad (3)$$

bu yerda - kambag'allik chegarasida iste'mol qilingan i miqdor, w_i^z esa p^0 narxlarida kambag'allik chegarasining befarqlik egri chizig'idagi budjetning ulushi. (2) va (3) ni birlashtirib, biz farovonlik koeffitsientining pulning nafililik o'lchovi uchun mos keladigan puldagi ifodasini topamiz.

$$u_r^h = \frac{x^h}{P_{Lz}^h} \quad (4)$$

Farovonlik koeffitsiyenti - Laspeyres narxlar indeksi bo'yicha xarajatlarni deflyatsiyalashni nazarda tutadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki Laspeyres narxlar indeksi o'rnida iste'mol narxlar indeksidan foydalanish mumkin. Sababi shundaki, Laspeyres indeksi narxlarning o'zgarishini o'lchash uchun ishlatiladigan usul bo'lib, u ma'lum bir asosiy davrdagi iste'mol savatchasi (tovarlar va xizmatlar to'plami)ning narxlarini joriy davrdagi narxlar bilan solishtiradi. Bu indeks odatda iste'mol narxlar indeksini (Consumer Price Index, CPI) hisoblashda qo'llaniladi, chunki u iste'molchilar tomonidan xarid qilinadigan tovar va xizmatlarning narx o'zgarishini aks ettiradi. Natijada:

$$u_r^h = \frac{x^h}{CPI} \quad (5)$$


Shunga ko'ra, quyida O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklari uchun Blackorby va Donaldson (1997) ning farovonlik koeffitsientining natijalari va ularning tahlilini ko'rib chiqamiz. Ushbu qiymat o'lchov sifatida koeffitsiyent sifatida ham, pul birligida yoki nisbiy qiymatda ham ifodalanishi mumkin.



1-jadval. O'zbekiston Respublikasi uy xo'jaliklari uchun Blackorby va Donaldson (1997) ning farovonlik koeffitsienti⁶.

Yil	x^h , (mlrd. so'm)	CPI (o'tgan yilga nisbatan)	u_r^h , (mlrd. so'm)	u_r^h , Koeffitsient
2010	40956.6	107.34	38154.27	1.0000
2011	54309.6	107.64	50454.47	1.3224
2012	68736.0	107.0	64239.25	1.2732
2013	85568.8	106.8	80120.15	1.2472
2014	105645.0	106.13	99561.70	1.2427
2015	130682.2	105.6	123751.14	1.2428
2016	153688.6	105.7	145401.70	1.1749
2017	174212.2	114.4	152284.09	1.0473
2018	262452.9	114.3	229619.16	1.5078
2019	333528.6	115.2	289524.83	1.2608
2020	374938.5	111.1	337565.26	1.1659
2021	476645.1	110.0	433313.73	1.2836
2022	598328.1	112.3	532710.69	1.2294
2023	725237.7	108.8	666760.83	1.2517
2024	877891.7	109.8	799537.61	1.1991

Yuqorida hisoblangan jadval natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, farovonlik koeffitsientining mutlaqo beqaror ko'rinish olganligini ko'rishimiz mumkin. Har yilning farovonlik koeffitsiyenti o'tgan yil bilan solishtirilgan tarzda hosil qilingan. Unga ko'ra 2010-yil bazis sifatida qabul qilinganligi sababli koeffitsiyenti 1 ga teng deb qaraladi. 2010-2024 yillar oralig'ida eng yuqori o'sish 2018-yilda (50.78%) iqtisodiy islohotlar va bozor liberallasuvi ta'siri ostida yuz bergan. Eng quyi ko'rsatkich esa 2017-yilda 1.0473 ga teng bo'lgan. Bunday past o'sishga ushbu yilda inflyatsiyaning keskin oshishi (18,8%, o'tgan yilning dekabrga oyiga nisbatan 2 barobar ko'p) sabab bo'lgan. 2010-yilda 38154.27 mlrd. so'm bo'lsa, 2024 yilda 799537.61 mlrd. so'mga yetdi. 2010-2024 yillar oralig'ida umumiy o'sish $799537.61/38154.27 = 20.95$ hamda farovonlik koeffitsiyenti (real xarajatlardagi o'sish) yillar davomida murakkab o'sish (compound growth) sifatida rivojlanganligi sababli o'rtacha yillik koeffitsiyent ≈ 1.2407 ga teng bo'ladi. Ya'ni uy xo'jaliklarining o'rtacha yillik farovonligi (real xarajatlardagi o'sish)ning o'sish darajasi 24% ga teng bo'lgan.(2-rasm)



2-rasm. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari va farovonlik koeffitsiyentining taqqoslanishi⁷.

6 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi grafikdan xulosa qilishimiz mumkinki, uy xo'jaliklarining nominal yakuniy iste'mol xarajatlari va farovonlik koeffitsienti pul birligidagi qiymatini taqqoslaydigan bo'lsak, umumiy ko'rinishda ikkala ko'rsatkich ham o'sish dinamikasiga ega. Agar ularning qiymatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, boshqa iqtisodiy sharoitlar teng bo'lgan holatda - uy xo'jaliklarining nominal yakuniy iste'mol xarajatlarning - farovonlik koeffitsientiga proporsional ekanligining isbotini ko'rishimiz mumkin. Ushbu nazariya shuni anglatadiki, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari qanchalik yuqori bo'lsa, ularning farovonlik darajasi, real xarajat qila olish qobiliyati ham o'sib boradi. Bizning hisob kitoblarimizda bu ko'rsatkich 2010-2016 yillar davomida barqaror sekin-astalik o'sib borgan, 2017-yilda eng quyi, 2018-yilda eng yuqori natijalar qayd qilingan. Pandemiya ta'sirida o'sish pasaygan, lekin 2021-yilda tiklanish kuzatilgan. 2024-yilda esa 799537.61 mlrd. so'mgacha, umumiy hisobda deyarli 21 barobarga o'sgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada uy xo'jaliklarining iqtisodiyotdagi o'rni, ularning farovonlik darajasini o'lchashga doir nazariy va amaliy yondashuvlar, xususan, Blackorby va Donaldson tomonidan ishlab chiqilgan farovonlik koeffitsienti konsepsiyasi asosida O'zbekiston uy xo'jaliklari misolida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari uy xo'jaliklarining bozor iqtisodiyotidagi asosiy subyekt sifatida resurslarni taqsimlash, iste'mol qilish va qaror qabul qilish jarayonlarida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi.

Jahon iqtisodiyotidagi tendentsiyalar, inflyatsiya, mehnat bozori o'zgarishlari hamda narxlarning o'sishi uy xo'jaliklarining xarid qobiliyati va farovonligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga bog'liq uy xo'jaliklari uchun dolzarb muammoga aylanmoqda.

O'zbekiston misolida 2010–2024 yillar davomida uy xo'jaliklarining nominal iste'mol xarajatlari va farovonlik koeffitsiyenti o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, farovonlik koeffitsienti real xarajatlardagi o'sishni aks ettirib, uy xo'jaliklarining turmush darajasini baholashda muhim vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. 2010–2024-yillar oralig'ida umumiy farovonlik darajasi deyarli 21 barobarga oshgan, o'rtacha yillik o'sish darajasi esa 24 %ni tashkil qilgan. Eng yuqori o'sish 2018-yilda (50,78 %) qayd etilgan bo'lib, bu iqtisodiy islohotlarning ijobiy ta'siri bilan bog'liq. Eng past o'sish esa 2017-yilda (1,0473) kuzatilgan bo'lib, inflyatsiyaning keskin oshishi natijasida yuzaga kelgan.

Mazkur ko'rsatkichlar davlat siyosatining inflyatsiyani yumshatish va ijtimoiy himoyani ta'minlashdagi yutuqlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, narxlar beqarorligining uy xo'jaliklari farovonligiga salbiy ta'siri saqlanib qolayotganini ham isbotlaydi.

Farovonlik koeffitsiyenti, pulning nafillik o'lchovidan farqli o'laroq, turmush darajasini kambag'allik chegarasiga nisbatan aniqlash imkonini beradi. Bu indikator, ayniqsa, daromad tengsizligini bartaraf etish va kambag'allikni kamaytirish yo'nalishida olib boriladigan siyosatni asoslashda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, farovonlik koeffitsientining narxlarga bog'liqligi va o'zgaruvchan tabiati uning amaliy qo'llanilishida ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Farovonlik koeffitsiyentini yanada aniq hisoblash va unga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun Statistika agentligi tomonidan uy xo'jaliklarining daromad-xarajat tuzilmasi, demografik tarkibi hamda mintaqaviy farqlarni aks ettiruvchi chuqurroq va tizimli ma'lumotlar yig'ilishi lozim.

O'zbekistonda uy xo'jaliklarining farovonligini oshirish maqsadida inflyatsiyani nazorat qilish, narxlarni barqarorlashtirish va iqtisodiy siyosatni shu yo'nalishda kuchaytirish zarur. Xususan:

- Ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini subsidiyalash;
- Kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga maqsadli yordam dasturlarini kengaytirish;
- Masofaviy ish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yangi daromad manbalarini yaratish;
- Avtomatlashtirish xavfi yuqori bo'lgan sohalarida band bo'lganlar uchun qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.


Shuningdek, uy xo'jaliklarining iste'mol xatti-harakatlari, farovonlik darajasiga narxlar o'zgarishi va global iqtisodiy omillarning ta'sirini aniqlash maqsadida mahalliy olimlar tomonidan ko'proq empirik tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu, o'z navbatida, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va farovonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Farovonlik koeffitsiyentidan davlat siyosatini monitoring qilish, kambag'allik chegarasini aniqlash va ijtimoiy dasturlarni optimallashtirishda vosita sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://lex.uz/docs/-3249723>
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6321693>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.
4. Jerebin V., Romanov A. *Ekonomika domashnix xozyaystv.* – M.: Finansy/YUNITI, 1998. – S. 25.
5. Blackorby, C., & Donaldson, D. (1997). Welfare ratios and distributionally sensitive cost-benefit analysis. *The Review of Economic Studies*, 64(4).
6. Ravallion, M. (1998). *Poverty lines in theory and practice.* Washington, DC: World Bank.
7. Berkinov B. B., Abulqosimov H. P., Abulqosimov M. H., Umarov A. T., Qulmatov A. A. *Institutsional iqtisodiyot: darslik. 2-qayta nashr* / H. P. Abulqosimov, B. B. Berkinov, M. H. Abulqosimov, A. T. Umarov, A. A. Qulmatov. – T.: "Universitet" nashriyoti, 2023. – 468 b.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100